

SarioSiyo

2026-yil–Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

30 mart 2026 yil. Dushanba № 12 (8240)

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

(Gazeta 1932 yildan «Sariosiyo haqiqati» nomi bilan chiqa boshlagan)



O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat o'tmish haqida hikoya qiladigan, balki tarix, bugun va kelajakni bog'laydigan, taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradigan aql-tafakkur markazi bo'lishi zarur.

Shavkat MIRZIYOYEV

sayohatga taklif etilgani ham olqishlarga sazovot bo'ldi. Tashrifdan sal fursat o'tib, aytilgan gap isboti bilan deganlaridek, bir guruh vohadoshlar Toshkentga yo'l oldik. Qulay vagonlarga joylashib, Qumqo'rg'on vokzalidan poytaxt sari safarga otlandik. Toza va ozoda vagon kupelarida barcha sharoitlar qilingan, ro'zadorlar uchun saharxo'rlik tashkillashtirildi. Qizg'in suhbat qurib, Toshkent shahriga yetib borganimizni sezmay qoldik. Toshkent temir vokzalida ommaviy axborot vositalari, tadbimga mas'ul qilib belgilangan idora vakillari bizni kutib olishdi va zamonaviy avtobuslarga joylashtirishdi. Qadim va azim shahar Toshkent quchoq ochib bizni o'z bag'riga oldi. Yo'l-yo'lakay Umidxon ismi gid (yo'l boshlovchi) bizni zeriktirmay, poytaxtimizning diqqatga sazovor joylari bilan

Yoshlar yetakchilari "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi!

Mahallalarda samarali faoliyat olib borayotgan hamda yoshlar bilan ishlash tizimida eng yuqori natijalarni qayd etgan bir qator yoshlar yetakchilari yaqinda Respublika Yoshlar agentligining "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni bilan mukofotlandi.



Mukofotlanganlar orasida viloyatimizdan Billur MFY yoshlar yetakchisi Sattorov Dilmurod Abdusalimovich ham o'rin olgan.

"Ўзбекистон – 2030" стратегиясида ижтимоий адолат ва ҳуқуқ устуворлиги

Мамлакатимизда демократик давлат ва кучли фуқаролик жамиятини барпо этиш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, қонун устуворлигини мустаҳкамлаш борасида кенг қўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Президентимиз Шавкат Мирзиёев томонидан "Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислохотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармон қабул қилинди ва унга кўра "Ўзбекистон – 2030" стратегияси тасдиқ-

тириш каби вазифалар белгиланган.
86-мақсад: жиноятчиликнинг олдини олиш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўлиб, бунда жиноятчиликни камайтириш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жамоат хавфсизлигини таъминлашга қаратилган. Ушбу мақсад доирасида:
-ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимини такомиллаштириш;
-маҳаллаларда хавфсиз муҳитни шакллантириш;
-кибержиноятчилик ва замонавий таҳдидларга қарши самара-

TAMADDUN: YOXUD O'TMISH VA KELAJAK O'RTASIDAGI KO'PRIK

Dunyo xaritasida bir paytlar mo'jazgina bo'lib

kelish orzusini niyat qilib qo'ymoqdalar. Mustaqillikning 35 yilligini

Yaqin yillargacha Davlat mukofoti olish juda mushkul edi, onda-sonda yilda bir yoki

Tadбир jarayonida prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar, islohotlar

yetib borishligida namoyon

kilashtirish — muayyan huquq
muayyan majburiyatlardan ozod
atlar, shtamp, muhr, blankalar
anish bilan bog'liq jinoyat. Asl
amazmunini o'zgartirish ham
shtirish hisoblanadi. Qonunda
lar uchun jinoiy huquqiy
o'yilgan. "Halol-pokiza kishi
chlikdadir, birovg'a xiyonatu
ishi esa halokatga giriftordir"
1 Mahmud az-Zamahshariy,
olim bobokalonimiz.

ni yo'q qilmoqchi bo'lsangiz
ng eng yaqin uch nafar
Siz nimaga shunday qilayotga
ular ham huddi shunday —
ni aniq bilishadi." Li Kuan
iq bosh vaziri.

I bor edi: birinchisi yurtni
g'larimni atrofimg'a yig'ish,
ilarni "Forbes" (dun yoning
ati e'lon qilinadigan jurnal)
ning evaziga xalqni hech
chi yo'l: o'z xalqimg'a xizmat
ondagi 10 ta eng rivojlangan
sh. Men ikkinchi yo'lni
, **Singapurning sobiq bosh**

A.MELIQULOV,
iloyati Ekologiya va iqlim
masi korrupsiyaga qarshi
yo'yicha bosh mutaxassisi

O'TKIR VIRUSLI GEPATIT "A" KASALLIGINING BAHORG'I MAVSUMDAGI AHVOLI VA PROFILAKTIKASI

O'tkir virusli gepatit A (VGA) — jigarni zararlovchi yuqumli kasallik bo'lib, asosan ifloslangan suv va oziq-ovqat mahsulotlari orqali yuqadi. Ushbu kasallik ko'proq gigiyena qoidalariga rioya qilinmagan sharoitlarda keng tarqaladi. Bahor faslida ob-havoning isishi, muzlarning erishi va ichimlik suvi manbalarining ifloslanish ehtimoli ortishi sababli gepatit A bilan kasallanish holatlari ko'payishi kuzatiladi.

Bahor mavsumida virusli gepatit A («sariq kasalligi») yuqish xavfi oshadi, chunki bu vaqtda vitamin yetishmovchiligi kuzatiladi, aholi ko'proq ochiq suv manbalaridan foydalanadi, meva-sabzavotlar iste'moli ortadi. Agar ushbu mahsulotlar yetarli darajada yuvilmasa yoki iflos suvda o'stirilgan bo'lsa, virus organizmga oson kiradi. Shuningdek, bolalar o'rtasida gigiyena ko'nikmalarining yetarli shakllanmaganligi sababli maktab va bog'chalarda kasallik tez tarqalishi mumkin.

Gepatit A kasalligining asosiy belgilari — holsizlik, ishtahaning yo'qolishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, tana haroratining ko'tarilishi, o'ng qovurg'a ostida og'riq hamda teri va ko'z oqining sarg'ayishi hisoblanadi. Kasallik odatda yengil va o'rta og'irlikda kechadi, biroq vaqtda aniqlanmasa va davolanmasa asoratlari berishi mumkin.

Kasallikning oldini olishda profilaktika choralarini muhim ahamiyatga ega. Eng asosiy profilaktika — shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilishdir. 2025-yil 1-maydan boshlab "Toza qo'llar"

dasturining amalga oshirilishi orqali kasallikning malum miqdorda kamayishiga erishiladi. Qo'llarni ovqatdan oldin va hojatxonadan keyin sovunlab yuvish, faqat qaynatilgan yoki tozalangan suv ichish, meva va sabzavotlarni yaxshilab yuvish zarur. Shuningdek, ochiq suv havzalaridan ichimlik suvi sifatida foydalanmaslik kerak.

Aholi o'rtasida sanitariya-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, ayniqsa, bolalar va o'smirlar orasida gigiyena madaniyatini shakllantirish muhimdir. Shu maqsadda tuman Sanitariya-epidemiologiya bo'limi xodimlari tomonidan har hafta "Mahallabay" ishlash tizimi orqali aholi xonadonlariga va tumandagi Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida tozalikka rioya qilish, ichimlik suvi va ovqatlanish sharoitlarini nazorat qilish mavzularida seminarlar, tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

Gepatit A ga qarshi emlash esa eng samarali profilaktika usullaridan biri hisoblanadi. Emlash orqali organizmda kasallikka qarshi immunitet hosil qilinadi va kasallanish xavfi keskin kamayadi.

Xulosa qilib aytganda, bahor mavsumida o'tkir virusli gepatit A kasalligining oldini olish uchun toza suv iste'moli, oziq-ovqat gigiyenasi va shaxsiy tozalikka alohida e'tibor qaratish lozim. Har bir inson oddiy gigiyena qoidalariga amal qilgan holda nafaqat o'zini, balki atrofdagilarni ham ushbu kasallikdan himoya qilishi mumkin.

Sh.Z. BOBOYEVA,
Sariosiyo tuman SanEpid bo'limi vrach
epidemiologi

*"SHAXZOD-DAVR" хусусий
корхонасига тегишли ЕРКА русум-
ли, давлат рақам белгиси 75683WAA
бўлган автотранспорт воситасига
2025 йил 16 майда берилган
AAG6232024 рақамли қайд этиш гу-
воҳномаси йўқолганлиги **МАЪЛУМ**
ҚИЛИНАДИ.

*«FAZLIDDIN AGRO
BUSNES» (СТИР: 306494766)
МЧЖнинг думалоқ муҳри ва
тўртбурчак тамғаси йўқолганлиги
МАЪЛУМ ҚИЛИНАДИ.

*«XASANOVA NASIBA
AMRULLOYEVNA» (ЖШШИР
41201851830056) ЯТТнинг думалоқ
муҳри ва тўртбурчак тамғаси йўқол-
ганлиги **МАЪЛУМ ҚИЛИНАДИ.**

*Узун туманидаги «MUSTAQIL
OZODBEK» (СТИР: 309515808) фер-
мер хўжалигининг думалоқ муҳри ва
тўртбурчак тамғаси йўқолганлиги
МАЪЛУМ ҚИЛИНАДИ.

*Узун туманидаги «XONDIZA-
LANGARI» (СТИР: 301809794) фер-
мер хўжалигининг думалоқ муҳри ва
тўртбурчак тамғаси йўқолганлиги
МАЪЛУМ ҚИЛИНАДИ.

*Фуқаро Умаров Рамазон Эргат
ўғли номига 2019 йил 10 июнда бе-
рилган "В,С" тоифал
DL0001518006 рақамли ҳайдовчил
гувоҳномаси йўқолганлиги **МА**
ЛУМ ҚИЛИНАДИ.

*Фуқаро Бобоев Беҳзод Бахро
жон о-ли номига 2017 йил 04 ф
ралда берилган "ВС" тоифали
серияли №1207480 рақамли ҳайде
чилик гувоҳномаси йўқолганли-
МАЪЛУМ ҚИЛИНАДИ.